


2022- yilning yanvar-martida Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-martida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 14 707,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 6,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 113,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 9,0 % ga yetdi.




2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	12 193,9	14 707,2	106,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 962,9	14 384,1	106,2
mahsulotlarga sof soliqlar	231,0	323,1	106,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 962,9	14 384,1	106,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	902,8	1 072,4	103,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	9 539,6	11 444,9	106,3
sanoat	9 142,7	10 986,7	106,3
qurilish	396,9	458,2	106,6
xizmatlar	1 520,5	1 866,8	107,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	343,5	424,1	110,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	205,3	230,7	107,8
boshqa xizmat tarmoqlari	971,7	1 212,0	106,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 193,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,0 % ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 7,5 % ni, sanoat tarmog'i 76,4 % ni, qurilish 3,2 % ni va xizmatlar sohasi 12,9 % ni tashkil qildi.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,1	97,8
mahsulotlarga sof soliqlar	1,9	2,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7,5	7,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	79,7	79,6
sanoat	76,4	76,4
qurilish	3,3	3,2
xizmatlar	12,8	12,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2,9	2,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,7	1,6
boshqa xizmat tarmoqlari	8,2	8,4

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)





● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 7,5 %), sanoatda – 106,3 % (76,4 %), xizmatlar sohasida – 107,3 % ni (12,9 %) va qurilish sohasida – 106,6 % (3,2 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 110,2 % (2,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 107,8 % (1,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida – 106,1 % dan (8,4 %) iborat bo'ldi.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i - 0,2 f.p. (2021- yilning yanvar-martida - 0,2 f.p.), sanoat tarmog'i - 4,7 f.p. (2021- yilning yanvar-martida - 8,7 f.p.), qurilish tarmog'i - 0,2 f.p. (2021- yilning yanvar-martida - 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi - 1,0 f.p. (2021- yilning yanvar-martida - 0,5 f.p.), ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM - 0,1 f.p. (2021- yilning yanvar-martida - 0,2 f.p.) ga ko'paydi.

2022- yilning yanvar-martida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 113,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 115,3 % va xizmatlarda 114,5 % ni tashkil etdi.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 19,6 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-martida 19,2 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

2021- yil

19,2 %

2022- yil

19,6 %